

9-sinf O'zbekiston tarixi

14-dars: Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, 1886-yilgi «Nizom»da «Turkiston o'lkasining yer tuzilishi», Nizom bo'yicha o'lkada yirik yer egaligi tugatilishi, Rossiyaning O'rta Osiyoda ko'chirish siyosati, 1875-yilda Avliyootada Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo'lishi, Toshkent shahri va o'lkaning boshqa Yangi Marg'ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlarida ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'lishi haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarni rus aholisining Turkistonga ko'chirilishining ijobiy va salbiy oqibatlarini farqlay olishga o'rgatish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Test sinovi", "BINGO" o'yini
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	10 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	13 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Vaqf yerlarining qisqartirilishi, 1886-yilgi «Nizom»ning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, ko'chirish siyosati, rus posyolkalari, agrar siyosat.



DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:



O'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar beradi:

1-topshiriq: Test savollari.

Darsning bu qismi quyidagi test savollar yozilgan slayd yordamida amalga oshiriladi.

1. S.M.Duxovskoy qaysi yillarda Turkiston general-gubernatori bo'ldi?

- A) 1867-1881 B) 1897-1900 C) 1898-1901* D) 1870-1892

2. "Turkiston o'lkasi boshqa o'lkalarga nisbatan tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e'tibor berilishini talab qiladi" so'zlari kimga tegishli?

- A) Fitrat B) Palen C) Kaufman D) Duxovskoy*

3. Podsho hukumati Toshkentni bosib olgandan so'ng Aleksandr II qachon "Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom"ni tasdiqlaydi?

- A) 1865-yil 6-yanvar B) 1865-yil 6-avgust* C) 1865-yil 8-sentyabr D) 1865-yil 6-oktyabr

4. Podsho hukumati Toshkentni bosib olgandan so'ng Aleksandr II tasdiqlagan "Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom"ning bandlari xato berilgan javobni toping.

A) boshqaruv xalq qo'liga o'tadi*

- B) viloyat bo'limlarga bo'linib, ularning boshliqlari bir vaqtning o'zida harbiy komendant ham hisoblangan
C) bo'lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi mustamlakachi hukumat vakillaridan tayinlanadigan boshqaruvchilar bo'ysungan
D) boshqaruv tizimi "harbiy-xalq boshqaruvi" nomi bilan gubernator qo'lida harbiy va fuqarolik ishlari mujassamlashtirildi

5. "O'lkada eng kichik boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo'lida bo'lgan" so'zlari kimga tegishli?

- A) Fitrat B) Kaufman C) K.Palen* D) Duxovskoy

6. Mahalliy aholi vakillariga ruslar tomonidan boshqaruvning eng quyi bosqichlaridagi lavozimlar berilgan. Bular qaysilar?

1.volost boshliqlari(mingboshilar) 2.qishloq oqsoqollari 3.ovul boshliqlari 4.qozi 5.biy va ularning yordamchilari 6.yoshulli 7.qishloq oqsoqoli 8.hokim 9.uyezd boshlig'i

- A) 1,2,3,4,5* B) 1,5,6,7,8,9 C) 2,4,6,8,9 D) 1,3,5,7,9

7. Quyidagi xato javobni toping.

- A) viloyatlar uyezdlarga bo'linib, ular harbiy zobitlar boshqaruvida bo'lgan
B) uchastkalarni uchastka pristanlari boshqargan*
C) uyezdlar uchastkalarga, volostlarga, qishloq va ovullarga bo'lingan
D) Turkiston o'lkasi ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'linib, ularni o'z qo'lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan harbiy gubernatorlar boshqargan

8. 1867-yilgi "Nizom" loyihasiga asosida tashkil qilingan har bir oqsoqollikdan iborat bo'lgan.

- A) 1000-2000 xonadon B) 100-200 xonadon* C) 1000-2000 o'tov D) 100-200 o'tov

9. Rossiya imperiyasining markaziy rayonlaridan O'rta Osiyoga aholi ko'chirib kelib joylashtirildi. Bundan maqsad.....



- A) mahalliy aholiga yordam berish
C) mahalliy dehqonchilikni rivojlantirish

B) mahalliy aholini ruslashtirish*

D) mahalliy aholi madaniyatini rivojlantirish

10. 1877-yilda joriy qilingan “Shahar nizomi”ga ko’ra shahar boshqaruvi.....ga o’tgan.

- A) Duma* B) Zemstvo C) Rada D) Kortess

11. Turkiston general-gubernatorligining aholisi qancha bo’lgan?

- A) 5,2 mln* B) 3 mln ga yaqin C) 2 mln atrofida D) 800 ming

12. Aholi yashash joyi nazoratchisi bu....

- A) uchastka pristavi* B) uchastka pristani C) uyezd oqsoqoli D) uyezd boshlig’i

O’quvchilar tomonidan yo’l qo’yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to’planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- Qishloq xo’jaligidagi o’zgarishlar;
- Rossiyaning O’rta Osiyoga ko’chirish siyosati.

Qishloq xo’jaligidagi o’zgarishlar

O’rta Osiyo iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi yetakchi o’rin tutgan. Rppsiya imperiyasi agrar hudud hisoblangan Turkiston o’lkasida yer-suvdan foydalanishni to’liq o’z nazoratiga olish va ulardan olinadigan soliqlarning o’z vaqtida to’planishidan manfaatdor edi. Jumladan, yerga egalik qilish va undan foydalanish tartiblariga etibor qaratilgan. Agrar masala nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega bo’lgan. Yerga egalik qilish tartiblarini nazorat qilish podsho hukumatiga aholi ustidaii hukmronligini ta’minlashda juda muhim edi. Mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai yerga bo’lgani bois unga egalik qilish zarur edi.

1886-yildagi «Nizom»ning «Turkiston o’lkasining yer tuzilishi» degan bo’limida o’lkada tarixan shakllanib kelgan an’anaviy yerga egalik qilish munosabatlari o’zgartirib yuborildi. Unga ko’ra Turkiston yerlari, o’rmonlari va yerosti qazilma boyliklari davlat mulki deb e’lon qilindi. Bu bilan ular Rossiya imperiyasi mulkiga aylandi. Nizom bo’yicha o’lkada yirik yer egaligi ham tugatildi.

Vaqf yerlari (masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar) ayni vaqtda yashab va yerga ishlov berayotgan kishilarga ijaraga berilar edi. Yangi vaqf hujjatlarini tasdiqlash faqat general-gubernator ro-ziligi bilan bu yerlarni davlat soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilmasdan amalga oshirilgan. Masjid tasarrufidan tashqarida, xususiy shaxs ixtiyorida bo’lgan yerlar ham davlat solig’iga tortiladigan bo’ldi. Vaqf hujjatlarini e’tirof etish, vaqf daromadlarining to’g’ri ishlatilishi ustidan nazorat qilish va ularni taftish qilish huquqi viloyat ma’muriyati ixtiyoriga o’tkazildi.

Bu vaqtgacha vaqf mulkidan olingan daromadlar maktablar, madrasalar va masjid binolarini ta’minlashga, xodimlarini moddiy ta’minlashga, diniy marosimlarni bajarishga, kerakli buyumlar olishga (gilam, joynamoz, diniy kitob) va boshqa tadbirlarga sarflanar edi.

Vaqf mulklarini nazorat qilish mustamlakachi hukumat vakillari qo’liga o’tishi bilan masjidlar va maktablarning moddiy ahvoli yomonlashdi. Mustamlakachi hukumat bu bilan mahalliy din peshvolari, ulamolar va diniy muassasalarga zarba berishga harakat qildi.

Rossiyaning O’rta Osiyoga ko’chirish siyosati



Rossiya imperiyasi tomonidan O’rta Osiyoni imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish va o’lkada doimiy hukmron bo’lib qolish maqsadida Sibir va Kavkaz hududlaridagidek mustamlakachilik siyosati olib borildi. Bu borada asosiy amalga oshirilgan choralaridan biri bu imperiyaning markaziy guberniya aholisini o’lkaga ko’chirib keltirish hisoblangan. 1886-yildagi «Nizom»da hukumat tasarrufida qolayotgan bo’sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat’iy belgilab qo’yildi.

Ko’chirish siyosati bilan shug’ullanish o’rta ma’muriyati zimmasiga yuklatilgan. Ko’chib kelganlarga katta imtiyozlar berilgan. Jumladan, ular mablag’ turarjoy, yer maydonlari, kreditlar bilan ta’minlangan. Ko’chib kelganlar 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan, keyingi 5 yil davomida soliqlarning yarmini to’lagan. Rossiyadan ko’chib kelganlar, asosan, qishloq aholisi bo’lgan. Ular uchun o’lka ma’muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag’ ajratgan. Turkiston o’lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo’lgan. Bunday imkoniyatlar Rossiyaning markaziy rayonlaridan ko’plab aholining ko’chib kelishiga sabab bo’lgan. 1875-yilda Avliyootada Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo’ldi. 15 yil davomida (1875-1890) Turkiston o’lkasiga 1300 oila ko’chib kelib joylashib, 19 ta rus qishlog’i tashkil topdi. Faqat 1891-1892-yillardagina ko’chib kelganlarning 25 ta manzilgohi paydo bo’ldi. Vaqt o’tishi bilan nafaqat ko’chib kelgan shaxslar, balki yirik korxonalar ham daromad olish maqsadida o’lkadan yerlar sotib olish boshladi. Rossiya imperiyasining ko’chirib keltirish siyosati Turkiston o’lkasidagi mustamlaka tizimini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan edi. Ko’chib kelganlarga yaratilgan imkoniyatlar o’lkaga ko’chib keluvchilar sonining haddan ziyod ko’payishiga olib keldi.

Ko’chirib keltirib joylashtirilgan aholining ko’payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziligiga sabab bo’lgan. Toshkent shahri va o’lkaning Yangi Marg’ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlaridaham ko’chib kelganlarning posyolkalari paydo bo’ldi. O’lkadagi yirik shaharlar ikkiga: yangi ma’muriyat,



harbiy qismlar joylashgan va ko'chirib keltirilganlar yashay-digan qism hamda eski - mahalliy aholi vakillari yashaydigan qismlarga ajratildi. Jumladan, Toshkentdagi Bo'zsuv anhor shahani ikki qismga ajratgan chegara bo'lgan.



1892-yildan boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsati bilan ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligi e'lon qilindi. Bu o'lkaga ko⁴chib keluvchilar sonining yanada ko'payishiga olib keldi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



Yangi mavzuni mustahkamlash quyidagi topshiriqlar asosida olib boriladi:

1-topshiriq: Bunda «Bingo mashqi» dan foydalaniladi.

1886	25 ta	1875
1875-1890	1866	1891-1892
5	19 ta	1867

O'quvchilarga oldindan tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi. Mashqning savollari:

1. Avliyootada birinchi rus manzilgohi qachon vujudga keldi? (1875)
2. Turkiston general-gubernatorligi qachon tashkil topdi? (1867)
3. Turkistonga 1300 rus oilasi ko'chirib keltirilgan sana? (1875-1890)
4. Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi «Nizom» qachon qabul qilingan? (1886)
5. 1891-1892-yillarda ko'chib kelganlarning qancha manzilgohi paydo bo'ldi? (25 ta)
6. 1875-1890-yillarda ko'chib kelgan aholi nechta qishloqni tashkil etgan? (19 ta)
7. Ko'chib kelganlarga uy qurish uchun qancha miqdorda rubl berilgan? (100)
8. Turkistonga qaysi yillar oralig'ida ruslarning 25 ta manzilgohi vujudga keldi? (1891-1892)
9. Yangi ko'chib kelganlar necha yil soliqlardan ozod etilgan? (5)

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;

Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Rasmlar orqali bayon etib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

